

TARIX FANI ORQALI YOSH AVLODDA MILLIY G’URURNI UYG‘OTISH

Matxoliqova Nodiraxon Urmonjonovna

Annotatsiya: *Ushbu maqola tarix fanining yosh avlodda milliy g’ururni shakllantirishdagi o’rnini o’rganadi. Maqolada tarixiy bilimlarning milliy o’zlikni anglash, vatanparvarlik tuyg’ularini rivojlanтирish va milliy qadriyatlarni saqlashdagi ahamiyati tahlil etiladi. Shuningdek, tarix o’qitish metodlarining yoshlar ongiga ta’siri va milliy g’ururni shakllantirishdagi roli to’g’risida so’z yuritiladi.*

Kalit so’zlar: Tarix fani, milliy g’urur, yosh avlod, vatanparvarlik, milliy o’zlik, tarixiy bilimlar, milliy qadriyatlar, tarix o’qitish metodlari, milliy tarbiya, tarixiy meros.

Tarix fani – insoniyatning butun o’tmishi davomida jamiyat hayotida sodir bo’lgan voqeа-hodisalar, jarayonlarni (jamiyat rivojini) yaxlit bir tarzda o’rganadi. Tarix fani ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, san’atshunoslik va boshqalar) tiziminining tarkibiy qismi. Tarix fanining bu guruhdagi o’rni uning tadqiqot predmeti va usullari bilan belgilanadi. Turli ijtimoiy va gumanitar fanlar jamiyat hayotining alohida jihatlarini o’rgansa, tarix fanining tadqiqot ob’yekti – aholi, jamiyat, mamlakat, davlat hayotining o’tmishi va hoziri haqidagi faktlarni yig’ish, taxlil qilish, to’plangan bilimlarni ma’lum bir tizimga solish va nazariy jihatdan umumlashtirishdir.

1. Milliy o’zlikni anglash Tarix xalqning o’tmishi, uning shakllanishi, rivojlanishi, boshidan kechirgan sinovlari, erishgan yutuqlari haqida ma’lumot beradi. Bu bilimlar yosh avlodda o’z xalqiga mansublik hissini, milliy o’zlikni anglash tuyg’usini shakllantiradi. Ular o’z ajdodlarining kim bo’lganligini, qanday yashaganligini, nimaga intilganligini bilib, faxrlanishadi.

2. Qadriyatlarni hurmat qilish: Tarix xalqning ma’naviy va madaniy qadriyatlarini, urfatodatlarini, an’analarini o’rganadi. Yoshlar bu qadriyatlar bilan tanishib, ularni hurmat qilishni, asrab-avaylashni o’rganadilar. Bu esa ularning ma’naviy dunyosini boyitadi, axloqiy me’yorlarini shakllantiradi.

3. Vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirish: Tarix Vatan himoyasi yo’lida jon fido qilgan qahramonlar haqida hikoya qiladi. Ularning jasorati yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi, o’z yurtiga sadoqatli bo’lishga undaydi. Tarixiy voqealar misolida yoshlar Vatan qadrini, uning mustaqilligi va ozodligini qanchalik aziz ekanligini anglaydilar.

4. Milliy iftixorni oshirish: Tarix xalqning fan, madaniyat, san’at sohasidagi yutuqlari haqida ma’lumot beradi. Buyuk olimlar, shoirlar, san’atkorlar hayoti bilan tanishish yoshlarda milliy iftixor tuyg’usini oshiradi, ularni yangi marralar sari intilishga ruhlantiradi.

5. Tarixiy xatolardan saboq olish: Tarix faqat yutuqlardan emas, balki xatolardan ham saboq beradi. O’tmishtagi xatolarni bilish kelajakda ularni takrorlamaslikka yordam beradi. Bu esa yosh avlodni ogoh bo’lishga, mustaqil fikrlashga o’rgatadi.

6. Umuminsoniy qadriyatlarga hurmat: Tarix faqat bir xalqning tarixini emas, balki boshqa xalqlarning tarixini ham o’rganishga undaydi. Bu esa yoshlarda boshqa madaniyatlarga hurmat bilan qarashni, tolerantlikni shakllantiradi.

Tarixni o‘qitishda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

Tarixiy voqealarni xolis, ishonchli manbalarga asoslangan holda yoritish kerak. Voqealarga turli nuqtai nazardan yondashish, ularni tahlil qilishga o’rgatadi. Tarixni qiziqarli, interaktiv usullar bilan o‘qitish (munozaralar, rolli o‘yinlar, multimediali materiallar). Tarixiy manbalar (hujjatlar, fotosuratlar, video materiallar) bilan ishslash ko‘nikmalarini shakllantirish kerakdir.

ADABIYOTLAR:

1.Karimov I ., „Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz“ ["Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q"], 7j., tarix, 1999;

Axunova M., Lunin B., Istorya istoricheskoy nauki v Uzbekistane, tarix, 1970;

Saidqulov T ., O‘rta Osiyo xalklari tarixinining tarixshunosligidan lavhalar, 1-kitob, tarix, 1993; Tarixshunoslik ocherklari, 12 qism, tarix, 1994;

Munirov Q., Xorazmda tarixshunoslik, tarix, 2002; Tarix fanining markazi, tarix, 2003.